

UDK.632

NA'MATAK DORIVOR O'SIMLIGI ZARARKUNANDALARI BIOKOLOGIYASI VA QARSHI KURASH CHORALARI

Ro'ziqulov Davlatbek Nazaraliyevich, katta o'qituvchi

<https://orcid.org/0000-0002-5689-4563>

Saloxiddinov Sardor Baxtiyor o'g'li, magistr

0009-0005-2972-7830, sardorsalohiddinov87@gmail.com

Toshkent Davlat Agrar Universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada dorivor namatakning asosiy zararkunandalari tarkibi, tarqalishi hamda bioekologiyasini o'rganish asosida ularga qarshi zamonaviy kurash choralari qo'llash haqida malumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Namatak, zararkunanda, bioekologiya, qarshi kurash choralari.

БИОЭКОЛОГИЯ И МЕРЫ БОРЬБЫ С ВРЕДИТЕЛЯМИ ЛЕКАРСТВЕННОГО РАСТЕНИЯ ШИПНИЦЫ

Аннотация. В данной статье представлена информация о применении современных мер борьбы против основных вредителей шиповника лекарственного на основе изучения их видового состава, распространения и биоэкологии.

Ключевые слова: Шиповник, вредитель, биоэкология, меры борьбы.

BIOECOLOGY AND MEASURES FOR CONTROLLING THE PESTS OF THE MEDICINAL PLANT ROSEHIP

Abstract. This article presents information on the application of modern control measures against the main pests of medicinal rosehip based on the study of their species composition, distribution, and bioecology.

Key words: Rosehip, pest, bioecology, control measures.

KIRISH. O'zbekiston sharoitida aholining dorivor o'simliklarga bo'lgan ehtiyojini qondirish bo'yicha bir qator keng ko'lamlı chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Agrotexnik kurash choralari qishloq xo'jalik ekinlarining yaxshi o'sib rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratish zararli organizmlari ommaviy ko'payishiga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan bo'lib, bunda zararkunanda rivojlanishi uchun noqulay sharoit yaratiladi. Barcha agrotexnik chora-tadbirlar zararkunandalarni ko'payishining oldini olishga qaratilgan. Lekin ayrim hollarda agrotexnik usullari bilan ham ularni

butunlay nobud qilish mumkin, jumladan barcha zararkunandalarni tez ko'payishi va zarari juda ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, bularga yetarli oziqa o'simligini bo'lishi va ularning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan iqlim sharoitining mavjudligi bilan bog'liq.

Dorivor o'simliklar zararkunandalariga qarshi kurash usullarini takomillashtirish natijasida hosildorlikni sezilarli darajada saqlab qolish mumkin. Qishloq xo'jalik ekinlarini himoya qilish sohasida katta yutuqlarga erishilganligiga qaramay hali ham hosilni zararkunanda va kasalliklar sababli ko'p qismi nobud bo'lmoqda ana shunday zararkunandalardan biri na'matak pashshasi-*Rhagoletis alternata* Fall. hisoblanib ushbu hasharot *Terhritidae* oilasiga mansub bo'lib na'matakning asosiy zararkunandasi hisoblanadi.



1-rasm: Na'matak pashshasi - *Rhagoletis alternata* Fall.

Na'matak pashshasiga qarshi uyg'unlashgan usulda kurashish samarali hisoblanadi, shuning uchun ushbu zararkunandaga qarshi tavsiya etilgan mikrobiologik preparatlarni ishlatish maqsadga muvofiq.

Pushtirang bargo'rovchi - *Celypha rosaceana*. Qanotlarini yozganda 15-22 mm, oldingi qanoti och sarg'ishdan to'q jigarrangacha. Ular barglarini o'rab olib ichida hayot kechiradi. Pushtirang bargo'rovchiga qarshi oldini olish choralari sifatida barg o'rovchi zararlagan shox-shabballarni kesib olib tashlash, nay shaklida o'ralib qolgan barglarni terib tashlash kerak, agar kurash ishlari kechikib o'tkazilayotgan bo'lsa va lichinkalar barglar yoki g'unchalarini zararlay boshlaydi. Na'matak gullagandan so'ng yoki yozda yuqori zaharli preparatlarni ishlatish tavsiya etilmaydi. Bunday paytlarda bakteriyali preparatlardan Lepidotsid, Bitoksibatsillin va Fitoverm preparatlarni

ishlatish lozim. Bundan tashqari kapalaklar ucha boshlagach hasharotlar rivojlanishini va o'sishni boshqaruvchi preparatlarini ishlatish ham yaxshi samara beradi.

Atirgul arrakashi - *Arge ochropus*. Arrakash barcha mevali va manzarali daraxtlarda xayot kechirishi mumkin. Asosan gul shonalarini zararlashi bilan mashxur. Lichinkasi kuchli zarar keltiradi. Kattaligi 7-10 mm atrofida, yaltirok tusda bo'ladi. G'umbagining uzunligi 10 mm, eni 5 mm bo'ladi. Bitta urg'ochisi 70 donagacha tuxum qo'yadi. Atirgul arrakashi namatak va atirgulni teng va asosli ravishda zararlaydigan xasharot.

Xulosa. Kurash choralari sifatida tashkiliy-xo'jalik tadbirlarini shuningdek, zararkunandalarga qarshi agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida va yuqori sifatli qilib o'tkazish hamda o'simlik ekilgan dalalarda o'z vaqtida himoya tadbirlarini o'tkazish, zararkunanda doimiy to'planadigan yerlarni o'zlashtirish va zararkunandaning doimiy makoni bo'lgan begona o'tlarni yo'qotish muhim hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.Murodov-Umumiy entomologiya kursi "Mehnat" nashriyoti Toshkent 2003.
2. Xo'jayev SH.T., Xolmurodov E.A.-"Entomologiya, o'simliklarni zararkunandalardan uyg'unlashgan himoya qilish, qishloq xo'jalik ekinlarini himoya qilish va agrotoksikologiya asoslari. Toshkent, "Fan" nashriyoti.2009.
3. Dusmanov I., Xolliyev A. O'simliklar zararkunanda kasalliklari va ularga qarshi kurash choralari. Tavsiyanoma. 2015.
4. Dorivor o'simlik zararkunandalari. B.Q.Muxammadiyev, A.T.Xolliyev, N.Irgasheva,A.Xasanov ,T.: "ToshdAU tahririyat nashriyot" bo'limi, (o'quv qo'llanma). 2019.